
15 may – Xalqaro oila kuni!

Oila jamiyatning negizi, bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a‘zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatdan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib yashash mumkin emas.

Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma‘naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi.

“O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘larining va yaqin insonlarining, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma‘naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

2023-05-15 13:43:38